

---

## Yana bir fuqaroning bandligi ta'minlandi

Qo'shtepa tumanidagi "Shahartepa" mahallasida yashovchi Odiljon Yusupov bir necha yildirki motorolyorda yuk tashib, mahalladoshlariga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bugungi kunda hamma uning beminnat xizmatidan foydalanadi.

O'g'li Oxunjon Yusupov ham otasining kasbiga qiziqib qolib, u ham motorolyor olishni niyat qildi. Mahallaga chiqib hokim yordamchisi va mahalla bankiriga o'zining maqsadlarini aytib, imtiyozli kredit evaziga 1 dona motorolyor olib berishlarini so'radi. Shundan so'ng, hokim yordamchisi va mahalla bankiri Oxunjonni uyiga borib imkoniyatlari o'rganishdi. Ijobiy xulosaga kelingach, uning bandligini ta'minlash hamda daromad topshi uchun motorolyor olib berildi.

2025-02-01 11:22:43